


III. INVESTITSIYALAR VA QURILISH

Joriy yilning yanvar–dekabr oylarida Toshkent shahrida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 56 725,8 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 87,0 % ni tashkil qildi.

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi va o‘sish sur’ati

(2022- yil yanvar-dekabr)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘zlashtirilgan hajmi bo‘yicha tumanlar kesimida Yunusobod tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 15,0 % o‘zlashtirildi.

Shuningdek, Shayxontohur tumani jami investitsiyalar hajmidan 12,5 % ni, Mirobod tumani 10,7 % ni tashkil etmoqda.

Olmazor 9,4 %, Chilonzor, Mirzo Ulug’bek tumanlarida ushbu ko‘rsatkich mos ravishda 8,7 hamda 8,4 % ni tashkil etdi.

Yangihayot va Bektemir tumanlarida investitsiyalar eng kam o‘zlashtirilgan bo‘lib, har birining Toshkent shahridagi ulushi 2,9 % va 2,7 % ni tashkil etdi.

**Markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning hududlar
bo‘yicha taqsimlanishi (2022- yil yanvar-dekabr)**

mln. so‘m

	<i>Jami investitsiyalar</i>	<i>Markazlashgan</i>	<i>Markazlashmagan</i>
Toshkent shahri	56 725 841,3	8 684 354,6	48 041 486,7
<i>tumanlar:</i>			
Bektemir	1 556 231,2	56 054,7	1 500 176,5
Mirzo Ulug‘bek	4 755 065,5	607 968,5	4 147 097,0
Mirobod	6 078 472,5	1 220 014,6	4 858 457,9
Olmazor	5 354 585,1	552 726,9	4 801 858,2
Sergeli	4 079 239,2	741 584,3	3 337 654,9
Uchtepa	3 875 855,6	2 052 417,9	1 823 437,7
Chilonzor	4 945 779,7	592 905,9	4 352 873,8
Shayxontohur	7 092 723,7	1 185 785,5	5 906 938,2
Yunusobod	8 502 366,7	871 806,5	7 630 560,2
Yakkasaroy	4 698 912,0	632 105,1	4 066 806,9
Yangihayot	1 648 900,5	76 919,5	1 571 981,0
Yashnobod	4 137 709,6	94 065,2	4 043 644,4

Markazlashgan investitsiyalarning asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan hajmi bo‘yicha tumanlar kesimida Uchtepa tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami markazlashgan asosiy kapitalga investitsiyalarning 23,6 % o‘zlashtirildi.

Shuningdek, ushbu o‘zlashtirish bo‘yicha Mirobod tumani 14,0 % ni, Shayxontohur tumani 13,7 % ni tashkil etmoqda.


Markazlashmagan investitsiyalarning asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan hajmi bo‘yicha tumanlar kesimida Yunusobod tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami markazlashmagan asosiy kapitalga investitsiyalarning 15,9 % o‘zlashtirildi.

Shuningdek, ushbu o‘zlashtirish bo‘yicha Shayxontohur tumani 12,3 % ni, Mirobod tumani 10,1 % ni tashkil etmoqda.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar
(2022- yil yanvar-dekabr)


	<i>mldr. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % da</i>
Asosiy kapitalga investitsiyalar	56 725,8	87,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
Markazlashgan investitsiyalar:	8 684,3	63,3	15,3
budjet mablag'lari			
Davlat maqsadli jamg'armalari	25,2	97,3	0,04
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	261,4	17,2	0,46
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi kreditlar	3 729,3	54,6	6,6
Markazlashmagan investitsiyalar:	48 041,5	93,3	84,7
korxona mablag'i	29 575,4	110,2	52,1
aholi mablag'i	1 826,4	78,0	3,2
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	12 126,3	69,4	21,4
tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	4 513,4	92,6	8,0

Markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi, (umumiy hajmga nisbatan, %da)




Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 8 684,4 mlrd. so‘m yoki o‘tgan yilning joriy davriga nisbatan 63,3 % (jami investitsiyalar hajmining 15,3 % i)ga kam o‘zlashtirildi, mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan esa 48041,5 mlrd.so‘m yoki o‘tgan yilning mazkur davriga nisbatan 93,3 % (jami investitsiyalardagi ulushi 84,7 %) ko‘p o‘zlashtirildi.

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari




Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining jami investitsiyalar hajmidagi ulushi, foizda



Markazlashmagan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalarini asosan korxona mablag'lari (jami investitsiyalar hajmiga nisbatan 52,1 %), to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar (21,4 %) hisobiga to'g'ri keldi.

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, foizda (2022- yil yanvar-dekabr)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida sanoat yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 12987,2 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 22,9 %i o'zlashtirilgan.

Keyingi o'rinda qurilish tarmog'i bo'lib, jami moliyalashtirish manbai hisobidan 6131,6 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 10,8 % o'zlashtirilgan.


Sanoat tarmog'i tarkibida eng ko'p investitsiya o'zlashtirilgan 3 faoliyat turi quyidagilar:

- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 283,7 mlrd.so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 0,4 %).

- Ishlab chiqarish sanoati 11255,5 mlrd.so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 19,8 %);

- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 1109,4 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 2,0 %);

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning mulkchilik shakllari bo'yicha texnologik tarkibi




Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida: Toshkent shahri bo'yicha qurilish-montaj ishlarining ulushi 48,5 % ni, mashina, uskuna, inventar sotib olishga xarajatlar 43,4 % ni hamda boshqa harajatlar ulushi 8,1 % ni tashkil etdi.

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning mulkchilik shakllari
bo'yicha texnologik tarkibi
(2022-yil yanvar-dekabr)**

	<i>Jami</i>	<i>Davlat</i>	<i>Nodavlat</i>
Jami, mlrd. so'm	56 725,8	8 547,5	48 178,3
<i>shu jumladan jamiga nisbatan % da:</i>	100,0	15,1	84,9
Qurilish – montaj ishlari	27 519,5	3 650,1	23 869,4
Mashina, uskuna, inventar	24 603,3	4 507,9	20 095,4
Boshqa xarajatlar	4 603,0	389,5	4 213,5

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi, foizda
(2022-yil yanvar-dekabr)**




Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida: Qurilish – montaj ishlari bo'yicha Yangihayot tumanida 62,1 %, Shayxontohur tumanida 52,8 %, Mirzo Ulug'bek tumanida 55,2 %, Olmazor tumanida 54,2 %, Mirobod tumanida 45,0 %, Uchtepa tumanida 34,9 % ni tashkil etdi. Mashina, uskuna, inventar sotib olishga harajatlar bo'yicha Bektemir tumanida 78,8 %, Yakkasaroy tumanida 53,3 %, Mirobod tumanida 49,6 %, Yunusobod tumanida 43,2 % , Chilonzor tumanida 41,1 % ni tashkil qildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab

chiqarish tarkibi, foizda

(2022- yil yanvar-dekabr)




Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibida: yangi qurilish bo'yicha Yangihayot tumanida 63,5 %, Sergeli tumanida 61,6 %, Yunusobod tumanida 55,7 %, Shayxontohur tumanida 54,5 %, Olmazor tumanida 52,1 % ni tashkil etdi. Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya, texnik qayta qurollantirish bo'yicha Yakkasaroy tumanida 43,6 % ni, Uchtepa tumanida 43,5 % ni, Bektemir tumanida 32,3 %, Yunusobod tumanida 29,4 % ni, Shayxontohur tumanida 28,9 %, hamda asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibida boshqalar yo'naliishida Mirzo Ulug'bek tumanida 31,5 %, Bektemir tumanida 27,7 %, Chilonzor tumanida 26,7 % ni va Olmazor tumanida 24,7 % ni tashkil qildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'zlashtirilgan
asosiy kapitalga investitsiyalar
(2022- yil yanvar-dekabr)**

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % da</i>	
		<i>2021- y.</i>	<i>2022- y.</i>
Asosiy kapitalga investitsiyalar - jami	56 725,8	100,0	100,0
<i>shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 585,6	0,5	2,8
Tog' - kon sanoati	283,7	0,7	0,5
Ishlab chiqarish sanoati	11 255,5	16,5	19,8
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	3 278,1	1,4	5,8
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	338,7	0,2	0,6
Qurilish	6 131,6	10,3	10,8
Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash	3 614,5	4,0	6,4
Tashish va saqlash	5 141,6	9,2	9,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	908,4	1,5	1,6
Axborot va aloqa	4 758,6	13,3	8,4
Moliya va sug'urta faoliyati	3 103,4	2,7	5,5
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	2 205,1	3,5	3,9
Ta'lim	1 849,8	3,4	3,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2 485,3	5,2	4,4
Boshqa faoliyat turlari	9 785,9	27,6	17,2

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilishi: Ishlab chiqarish sanoati 11 255,5 mlrd. so'm (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 19,8 %), oziq-ovqat, ichimlik va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyati turida 2 018,9 mlrd. so'm (3,6 %), metallurgiya sanoati ishlab chiqarish faoliyati turida 1 063,6 mlrd. so'm (1,9%), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyati turida 920,1 mlrd. so'm (1,6 %), boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarish faoliyat turida 1 389,4 mlrd. so'm (2,4 %), tayyor metall buyumlarni ishlab chiqarish faoliyati turida 627,5 mlrd. so'm (1,1 %), to'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechak ishlab chiqarish sanoatida 1 115,9 mlrd. so'm (2,0 %), elektr uskunalar ishlab chiqarish sanoatida 1 621,1 mlrd. so'm (2,9 %) elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash faoliyat turida 1 109,4 mlrd. so'm (2,0 %), qurilish faoliyati turida 6 131,6 mlrd. so'm (10,8 %), yashash va ovqatlanish faoliyat turida 908,4 mlrd. so'm (1,6 %), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash faoliyat turida 3 614,5 mlrd. so'm (6,4 %), tashish va saqlash faoliyati turida 5 141,6 mlrd. so'm (9,1 %), axborot va aloqa faoliyat turida 4 758,6 mlrd. so'm (8,4 %), moliya va sug'urta faoliyati turida 3 103,4 mlrd. so'm (5,5 %), sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 2 485,3 mlrd. so'm (4,4 %), ta'lim sohasida 1 849,8 mlrd. so'm (3,3 %), professional, ilmiy va texnik faoliyat turida 2 205,1 mlrd. so'm (3,9 %), jami faoliyat turlaridan tashqari turar joy qurilishida 4 064,8 mlrd. so'm (7,2 %) investitsiyalar o'zlashtirildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi, foizda (2022-yil yanvar-dekabr)




Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

2022-yil yanvar-dekabr oylarida 15 855,6 mlrd.so‘m yoki 2021-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 65,3 % asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o‘zlashtirildi. Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 28,0 % tashkil etdi. Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Yunusobod tumanida 21,5 %, Shayxontohur tumanida 21,1 %, Uchtepa tumanida 11,9 %, Olmazor tumanida 10,8 % ga to‘g‘ri keldi.

Hududlarda o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar (2022- yil yanvar-dekabr, mlrd. so‘m)


	<i>Jami xorijiy investitsiya va kreditlar</i>	<i>shu jumladan:</i>		<i>To‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa investitsiya va kreditlar</i>	<i>shu jumladan:</i>	
		<i>investitsiya</i>	<i>kredit</i>		<i>investitsiya</i>	<i>kredit</i>
Toshkent sh.	15 855,6	9 158,2	6 697,4	12 126,3	9 158,2	2 968,1
<i>tumanlar:</i>						
Bektemir	246,8	162,1	84,7	246,8	162,1	84,7
Mirzo Ulug‘bek	242,2	185,9	56,3	240,5	185,9	54,6
Mirobod	928,0	852,8	75,2	875,1	852,8	22,3
Olmazor	1710,3	1412,3	298,0	1467,8	1412,3	55,5
Sergeli	987,4	356,0	631,4	987,4	356,0	631,4
Uchtepa	1887,7	524,2	1363,5	582,1	524,2	57,9
Chilonzor	834,3	344,5	489,8	408,9	344,5	64,4
Shayxontohur	3349,6	1030,5	2319,1	2529,3	1030,5	1498,8
Yunusobod	3403,7	2845,4	558,3	2934,7	2845,5	89,2
Yakkasaroy	1191,9	793,8	398,1	796,7	793,7	3,0
Yangihayot	558,6	490,5	68,1	558,6	490,5	68,1
Yashnobod	515,1	160,2	354,9	498,4	160,2	338,2

Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish (mlrd. so'm)



To‘g‘ridan-to‘g‘ri, boshqa xorijiy investitsiya va kreditlarning o'zlashtirilgan hajmi 2022-yilning yanvar-dekabrida 12126,3 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 69,4 % ni tashkil qildi.

Ayrim iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, foizda



Quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar eng ko'p o'zlashtirildi: Ishlab chiqarish sanoati 20,5 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan (58,2 % ga) kamaygan.

Shu bilan birga, quyidagi iqtisodiy faoliyat turlariga xorijiy investitsiya va kreditlar kam o'zlashtirildi: Tog‘-kon sanoati faoliyat 1,5 %, ta'lif 2,4 %, qishloq xo'jaligi 9,4 %.

Ijtimoiy soha ob'ektlarining qurilishi

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida ijtimoiy soha obektlari, jumladan, 6 ta 2095 o'rinali maktabgacha ta'lim muassalari, 7 ta 8686 o'quv o'rinali umumta'lim makkableri, hamda 1320 bir smenada qabul qilish quvvatiga ega vrachlik ambulatoriya-poliklinika muassasalari ishga tushirildi.


Umumiy maydoni 704,4 ming kv.m. bo'lgan 2 177 ta turar joy obekti yangi qurilib, ishga tushirilgan.

Ishga tushirilgan turar joylarning hududlar kesimida ko'radigan bo'lsak, eng ko'pi Yashnobod tumanida ishga tushirilgan 153,0 ming kv.m va u shahar bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 21,7 % ni tashkil etdi. Keyingi o'rinda, Yunusobod tumani egallagan bo'lib, 146,4 ming kv.m shahar bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 20,8 % ni tashkil etishgan.

Qurilish ishlari


Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 31908,3 mlrd. so'm yoki 2021-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 101,1 % qurilish ishlari bajarildi.

2022 - yil yanvar-dekabr oylarida tumanlar kesimida qurilish ishlaringin o'sish sur'ati, o'tgan yilning mos davriga nisbatan foizda




Qurilish ishlari bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari quyidagi tumanlarda kuzatildi: Yashnobod tumanida 132,3 % va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 44,0 % punktga ko'paydi, Mirobod, Bektemir tumanlarida 115,5 % va 110,9 % dan bo'lib (13,2 % va 2,2 % punktga), Nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan 31 013,1 mlrd. so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 97,2 foizni tashkil qildi.

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish tashkilotlarining o'z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari (mlrd. so'm)



Qurilish ishlari umumiy hajmining 63,6 foizi binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari, 19,8 foizi fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari va 16,5 foizi ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga to'g'ri keldi.

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Nomoliyaviy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar bu – real mablag‘larni yaratishga yo‘naltirilgan investitsiyalar bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi: asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar, kapital ta’mirlashga xarajatlar, nomoddiy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar (patentlar, litsenziyalar, dasturiy mahsulotlar, yer maydonlaridan va tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari va boshqalar).

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarga-barcha turdagি qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarini montaj qilish bo‘yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilmaydigan), transport vositalari, jihoz va xo‘jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning ehtiyyot qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatlarsiz keltirilgan.

Chet el investitsiyalari – asosan kelgusida foya olish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi korxona va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

Investorlar – yuridik va jismoniy shaxslar bo‘lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o‘z mablag‘lari, qarz mablag‘lari yoki jalb qilingan mablag‘larni investitsiya ko‘rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ulardan maqsadli foydalanishini ta‘minlab beruvchi investitsion faoliyat subyektlari hisoblanadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar bu – korxonaga to‘liq egalik qiluvchi yoki korxona aksionerlik kapitalining 10 foizidan kam bo‘lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya’ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqigi ega bo‘lgan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalar.

Davlat mulkchiligi- mulkchilik shakllaridan biri, davlatga qarashli va uning o‘z vazifalarini bajarishi uchun zarur barcha mol-mulklar va mulkiy huquqlardir.

Asosiy kapital – kapitalning asosiy ishlab chiqarish vositalari ni o‘z ichiga oluvchi, iqtisodiy jihatdan o‘z qiymatini ishlab chiqarilgan tovarlarga asta-sekin va uzoq muddatda o‘tkazib boruvchi qismi. Asosiy kapital pul shaklida uskuna, mashina-mexanizmlar, bino-inshootlar va boshqalar qiymatidan iborat bo‘lib, ular sotib olingan paydag‘i bozor narxi bilan hisoblanadi. Asosiy kapital qiymatining bir qismi har yili mahsulotning ishlab chiqarish va sotish harajatlariga kiradi va amortizatsiya ajratmalari tarzida maxsus amortizatsiya fondida jamg‘ariladi.

Buyurtmachilar – investitsion jarayonning qatnashchilari. Buyurtmachi sifatida investorning o‘zi, shuningdek, investor tomonidan amaldagi korxonalarini, binolarni, inshootlarni yangi qurilishi, qayta ta’mirlash, kengaytirish va texnik qayta qurollantirishni amalga oshirishlari uchun vakil etib tayinlangan jismoniy va yuridik shaxslar faoliyat ko‘rsatishlari mumkin. Shu bilan birga buyurtmachi investitsion jarayon qatnashchilarining tadbirkorlik va boshqa faoliyatiga, agarda ular orasidagi shartnomada nazarda tutilmagan bo‘lsa, aralashmasliklari lozim.

Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta’mirlash, kapital ta’mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.

Qurilish — biror inshootni tayyorlash jarayoni, shuningdek shunday jarayon ketayotgan joydir. Qurilish murakkab jarayon bo‘lib, unda bir necha vazifalar amalga oshiriladi. Bu jarayon moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri bo‘lib, turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuritish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot); keng ma’noda yaratuvchilik jarayoni hisoblanadi.

Rekonstruksiya — mavjud narsani yaxshilash, amaliy ahamiyatini oshirish, takomillashtirish maqsadida tubdan qayta qurish jarayonidir. Bunda qoldiklariga, yozma manbalarga asoslanib, biror narsa qiyoqasini yoki dastlabki ko‘rinishini tiklash, qurish hisoblanadi. Rekonstruksiya chizma, rasm, tasvir, loyiha va h.k. orqali amalga oshiriladi.

Kapital ta’mirlash — qurilish konstruksiyalarini, shuningdek, muhandislik jihozlarini kommunikatsiyalar bilan tiklash yoki to’liq almashtirish tushuniladi. Amalda kapital ta’mirlash binoning tashqi ko‘rinishini to’liq yoki qisman yangilashda ifodalanishi mumkin.

Joriy ta’mirlash - bu xizmat ko‘rsatilayotgan ob’ektni shikastlanish va nosozliklardan o‘z vaqtida va tizimli ravishda himoya qilishga qaratilgan tadbirlar tushuniladi.